

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

“MEHROBDAN CHAYON” ROMANIDAGI AYRIM MADANIY KODLAR XUSUSIDA

Eshmonov Nursulton Bahodir o'g'li

Guliston davlat universiteti, doktorant.

e-mail: sultonmuhammad2112@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0006-3162-4256>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada o'zbek tilshunosligining dolzarb masalalaridan biri bo'lgan milliy-madaniy kodning tilda aks etishi muammosi yoritilgan. Til va etnik xususiyatlarning o'zaro munosabati hamda bir-biriga ta'siri Abdulla Qodiriyning “*Mehrobdan chayon*” romani misolida tahlil qilingan. Asardagi lingvomadaniy birliklar milliy madaniy qadriyatlar, dunyoqarash va etnosemantik xususiyatlarni ochib beruvchi asosiy illyustrativ material sifatida o'rganilgan.

Kalit so'zlar: til, etnos, etnolingvistika, antropolingvistika, kod, madaniy kod, lingvomadaniy kod, artefakt, naturfakt, etnosemantika.

О НЕКОТОРЫХ КУЛЬТУРНЫХ КОДАХ В РОМАНЕ «СКОРПИОН ИЗ АЛТАРЯ»

Эшмонов Нурсултон Баходир угли

Гулистанский государственный университет, докторант.

Аннотация.

Статья посвящена одной из актуальных проблем узбекского языкознания — отражению национально-культурного кода в языке. Взаимосвязь языка и этнических особенностей, а также их взаимное влияние рассматриваются на материале романа Абдуллы Кадыри «*Скорпион из алтаря*». Лингвокультурные единицы, представленные в произведении, служат иллюстративным материалом для анализа национально-культурных ценностей, мировоззрения и этносемантических особенностей.

Ключевые слова: язык, этнос, этнолингвистика, антрополингвистика, код, культурный код, лингвокультурный код, артефакт, натурфакт, этносемантика.

ON CERTAIN CULTURAL CODES IN THE NOVEL SCORPION FROM THE ALTAR

Eshmonov Nursulton Bahodir o'g'li

Gulistan State University, Doctoral Student.

Abstract.

This article addresses one of the key issues in Uzbek linguistics—the reflection of the national and cultural code in language. The relationship between language and ethnic characteristics, as well as their mutual influence, is examined through Abdulla Qodiriy's novel *Scorpion from the Altar*. The linguocultural units found in the novel serve as illustrative material for analyzing national cultural values, worldview, and ethnosemantic features.

Keywords: language, ethnos, ethnolinguistics, anthropolinguistics, code, cultural code, linguocultural code, artifact, naturfact, ethnosemantics.

Kirish. Dastlab, **madaniy kod** xususida. **Madaniy kod** – muayyan shaklda kodlangan madaniy axborot; olam manzarasidagi naturfaktlar, artefaktlar hamda insonning ichki ruhiy olamini anglatuvchi tushunchalarni kodlangan tarzda ifodalovchi moddiy yoki ideal belgilar tizimidir. Madaniy kodni mutaxassislar madaniy mazmun va uning shakli o'rtasidagi aloqani ta'minlovchi vosita, madaniyatni tushunish kaliti sifatida ta'riflab, uni xalq psixologiyasini **belgilovchi** omillardan biri deb hisoblaydilar. Madaniy kodlar lingvomadaniyat vakillari ongidagi muayyan tushunchaga bog'liq bo'lgan obrazlarni belgilab beradi. Shu sababli ma'lum bir madaniyatga xos obrazning mazmunini tushunish uchun uning kodini anglash zarur bo'ladi [4, 50].

Madaniy kod xalqning tarixiy tajribasi, qadriyatlari, urf-odatlar, diniy e'tiqodlari va dunyoqarashini ifodalovchi til, ramz, obraz hamda xatti-harakatlar tizimidir. Abdulla Qodiriyning “*Mehrobdan chayon*” romanida o'zbek xalqining milliy va diniy-madaniy hayotini aks ettiruvchi ko'plab madaniy kodlar uchraydi.

2. MATERIALLAR VA METODLAR. 2.1. Tadqiqot materiallari

Tadqiqotning asosiy materiallari sifatida Abdulla Qodiriyning “*Mehrobdan chayon*” (1994) [1], D. Xudoyberganovning “*Lingvokulturologik terminlarning qisqacha izohli lug'ati*” (2015) [2] hamda Ibrohim

Darvishovning etnolingvistikaga oid tadqiqotlari (2023) tanlab olindi.

2.2. Tadqiqot metodi

Maqolada quyidagi usullar qo'llanilgan.

(1) Madaniy naturfakt. Foydalanuvchilarining madaniyati haqida ma'lumot beruvchi, ramziy ma'noga ega bo'lgan har qanday tabiiy narsa yoki obyekt [4, 51]. Berilgan izohdan kelib chiqib aytish mumkin, madaniy naturfakt bu tabiatga oid oddiy narsa, joy, buyum yoki muhit bo'lib, u inson hayoti, urf-odati va ijtimoiy munosabatlari orqali madaniy ma'no kasb etadi. Bu hodisa **tabiat + inson hayoti + ma'no = madaniy naturfakt** modeli orqali namoyon bo'ladi.

Abdulla Qodiriyning **"Mehrobdan chayon"** romanida Anvar va Ra'no yashaydigan muhit, ayniqsa, **masjid, madrasa, hovli, hujra va saroylar** oddiy bino sifatida ko'rinadi. Biroq ular faqat joy emas, balki jamiyat madaniyatini ham aks ettiradi.

Mohlar oyimdan juda xursand bo'lg'ani holda uyiga qaytib ketdi. O'z uyida bir nonxo'r ortishi maxdumga, albatta, yoqmas edi. Biroq onasining ra'yini qaytarishdan ham o'z edi. Shunday ham bo'lsa: "Tomog'i-ku yengil, kiyimi og'irroq. Kiyimini opasining ustiga qo'yabsiz-da", – dedi. Mohlar oyim: "Kiyimi bir gap bo'lar. Kishilar masjid, madrasa solganda, bir yetim boqsak, arzimaydimi? Senga og'irlik qilsa, o'z bisotimdan kiyintirarman, bolam", – dedi [1, 24].

Masalan, saroy tasvirida u tashqi tomondan oddiy bino bo'lib ko'rinsa-da, ichki tuzilishi, hujralarning bezagi va odamlarning joylashuvi ijtimoiy tabaqalanish hamda saroy madaniyatini ko'rsatadi. Bu yerda saroy madaniy naturfakt hisoblanadi, chunki u tabiat materiallaridan bunyod etilgan bino bo'lsa-da, jamiyat hayoti, tartibi va ijtimoiy munosabatlarni ifodalaydi.

Madrasa [arabcha مدرسة – maktab, o'quv yurti; fandagi yo'nalish, maktab] – 1) tarixan Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida, shuningdek, chor Rossiyasining musulmonlar yashaydigan hududlarida faoliyat yuritgan diniy oliy o'quv yurti. *Nodira Anvarni o'qitmoqchi, hatto madrasalarga yubormoqchi. A. Qodiriy, "Mehrobdan chayon". Shaharning sharqi-janubiy tarafida ulkan qopqasi bo'lar, tepalik ustida bo'lsa bir nechta masjid va hatto madrasa binolari qad ko'targandi. O. Yoqubov, "Qarnoq".* 2) O'zbekiston musulmonlari idorasi qoshidagi diniy maktab [10, 24].

Romanda madrasa va hujralar faqatgina o'qish joyi emas, balki eski ta'lim tizimi, diniy va ijtimoiy tartibni ifodalaydi, odamlarning dunyoqarashini belgilaydi. Demak, madrasa oddiy bino emas, balki madaniy mazmun yuklangan tabiiy-fizik muhitdir.

Asarda saroy, madrasa va hujralar oddiy geografik yoki me'moriy joylar bo'lsa ham, ular orqali jamiyat tuzumi, axloq va urf-odatlar, ijtimoiy munosabatlar ifodalangan. Shuning uchun bu joylar madaniy naturfakt hisoblanadi.

(2) Artefakt. [lot. *ars* – san'at + *factus* – qilingan, yaratilgan, ya'ni san'at qonunlari asosida yaratilgan]. Inson ijodiy faoliyatining mahsuli. Madaniy artefakt – odamlar tomonidan yaratilgan va uni yaratuvchilar hamda foydalanuvchilarning madaniyati haqida ma'lumot beruvchi, ma'lum fizik xususiyatlarga va ramziy ma'noga ega bo'lgan har qanday sun'iy obyekt [4, 50].

Artefakt bu inson tomonidan yaratilgan hamda ma'lum bir xalqning madaniyati, urf-odati, qadriyatlar yoki turmush tarzini aks ettiradigan moddiy buyum yoki inshootdir.

So'fi takbir tushirdi, mulla Abdurahmon mehrobg'a o'tdi, muftiy va boshqalar unga iqtido qildilar [1, 96].

Mehrob [arabcha محراب – ibodatxona; tokcha, taxmon tepasining yarim doira qilib ishlangan qismi] – 1) masjid ichida qibla tomonidagi devorda taxmon shaklida qurilgan joy (namoz shu tomonga qarab o'qiladi). *Hujraning ichi qorong'i bo'lmasa ham, qoidaga binoan, g'arb tomonidagi mehrobg'a sham yoqib qo'yilgan edi. P. Qodirov, "Yulduzli tunlar". U mehrobg'a yetib kelgach, yarim qorong'i xonada tasbeh o'girib o'tirgan uch-to'rt kishiga ko'zi tushdi. Mirmuhsin, "Me'mor".* 2) ayn. **taxmon**. *Ko'rpani mehrobg'a yig'ib qo'ymoq.* 3) ko'chma. Biror narsa yoki joyning to'ri, to'r tomoni. *Vatan – sen yuragim, yuragim sensan. Yuragim mehrobi – muqaddas Vatan. G. Jo'rayeva. Otashin barq yondi gulrang charxning mehrobida. E. Vohidov [10, 173].*

"Mehrobdan chayon" romanida tasvirlangan mehrob madaniy artefakt hisoblanadi. Mehrob masjiddagi qiblani ko'rsatuvchi me'moriy qism bo'lib, inson tomonidan yaratilgan va diniy hamda madaniy ahamiyatga ega. Asarda mehrob nafaqat ibodat joyining bir qismi, balki poklik, e'tiqod va ma'naviy qadriyatlarining ramzi sifatida ham tasvirlanadi. Shu sababli u madaniy artefakt sifatida baholanadi.

Yana bir misol sifatida **saroy, madrasa yoki milliy kiyimlarni** keltirish mumkin. Bularning barchasi inson qo'li bilan yaratilgan bo'lib, o'sha davr madaniyati, ijtimoiy hayoti va urf-odatlarini aks ettirgani uchun madaniy artefakt sanaladi.

3. NATIJALAR. Asarda diniy hayot muhim o'rin tutadi. Quyidagi birliklar asarda diniy kod sifatida namoyon bo'ladi: **masjid, mehrob, namoz, imom, qori, madrasa, duo, shariat** va b. Roman nomidagi **mehrob** ibodat va poklik timsoli bo'lsa, **chayon** esa xiyonat, razillik va yovuzlikning ramziy ifodasidir. Shu tariqa nomning o'zi qarama-qarshi ma'naviy qadriyatlarni ifodalovchi madaniy kod vazifasini bajaradi.

Asarda xalq axloqiga xos qadriyatlar yoritilgan bo'lib, ular **halollik, adolat, or-nomus, hayo, vijdon, sadoqat, insonparvarlik** kabi axloqiy kod birliklarida ifodalangan. Bu tushunchalar qahramonlarning nutqi va xatti-harakatlari orqali ifodalangan hamda asarning g'oyaviy yo'nalishini belgilagan. Asardan olingan ushbu parchada **adolat, vijdon, or-nomus** axloqiy kodlari aks etgan.

– Dushmanlar xarob, munofiqlar betob bo'lsin... Onhazratimning davlatlariga Xudo tavfiq va adolat bersin! [1, 84].

– Pushti panoho! – dedi hudaychi. – Xiyonatkor o'z ixtiyori bilan kelib, domi adolatingizga taslim bo'lmoqchi!

– Kulishga haqqingiz bor, domla, chunki o'ch olasiz, – dedi Anvar. Birdan hammaning ko'zi Abdurahmonga tushdi.

– Faqat siz **ifloslik** natijasida kulasiz, men... men **to'g'rilik** samarasini o'raman, siz **iflos vijdon** bilan g'olibsiz, men **sof vijdon** bilan mag'lubman...

– Meni dor ostiga kim keltirdi? Vijdon emasmi, taqsir?! Sizni bu yerda kim tomoshabin qildi? **Ifloslik** emasmi, taqsir?! [1, 145–146].

– Menim holimni ko'ringiz, domla, – dedi Anvar kulgan yuzda. – Qo'lim **bog'langan**, ustimda xanjar yaltiraydi. Lekin men kulaman... Nima uchun bunday, taqsir? Chunki vijdon rohatda, jon tinch, yurakda ishq... Durust, men ko'milgach, qabrim ustida ko'ksi dog'liq qizil lolalar ko'karar... Nimadan bu? Bu – sizning kabi tubanlar solgan iz... [1, 147].

Ushbu parchada zidlik usuli qahramonlarning xarakteri va g'oyaviy qarashlarini ochishda muhim badiiy vosita sifatida qo'llangan. Keltirilgan matnda zid ma'noli birliklar va qarama-qarshi tushunchalar quyidagicha namoyon bo'ladi:

O'ch olasiz – to'g'rilik samarasini o'raman. Birinchi holatda shaxsiy manfaat va qasos, ikkinchisida esa halollik hamda adolat g'oyasi qarama-qarshi qo'yilgan.

Ifloslik – to'g'rilik. Asosiy antonimik juftlik. **Ifloslik** axloqiy tubanlikni, **to'g'rilik** esa poklik va haqiqatni bildiradi.

Iflos vijdon – sof vijdon. **Iflos** va **sof** sifatleri vijdonning axloqiy holatini qarama-qarshi tasvirlaydi.

G'olibsiz – mag'lubman. Tashqi g'alaba bilan ichki g'alaba o'rtasidagi zidlikni ifodalaydi. Anvar jismonan mag'lub bo'lsa-da, ma'naviy jihatdan ustundir.

Vijdon rohatda – qo'lim bog'langan. Jismoniy asirlik va ma'naviy erkinlik qarama-qarshi qo'yilgan.

Jon tinch – ustimda xanjar yaltiraydi. O'lim xavfi mavjud bo'lsa ham, qahramonning ruhiy xotirjamligi ta'kidlanadi.

Kulaman – dor ostiga keldim. Fojiaiy vaziyat va quvonch ifodasi o'rtasidagi kuchli kontrast hosil qilingan.

Qabr – qizil lolalar. O'lim va hayot, yakun va davomiylik ramziy zidlik orqali ifodalangan.

Tubanlar – sof vijdonli inson. Salbiy va ijobiy axloqiy fazilatlar qarama-qarshi qo'yilgan.

4. MUHOKAMA. Mazkur parchada zidlik leksik, mantiqiy va badiiy sathlarda yuzaga chiqadi. Muallif **ifloslik – to'g'rilik, iflos vijdon – sof vijdon, g'olib – mag'lub, o'lim – hayot, jismoniy asirlik – ma'naviy erkinlik** kabi qarama-qarshiliklar orqali Anvarning ma'naviy yuksakligini, raqiblarining esa axloqiy tubanligini ochib beradi. Natijada zidlik nafaqat badiiy ta'sirchanlikni kuchaytiradi, balki asarning asosiy g'oyasi – **haqiqiy** g'alaba vijdon pokligida ekanini ta'kidlashga xizmat qiladi, shu bilan birga milliy-madaniy, axloqiy kod **vazifasini** ham o'tab beradi.

Oila va qarindoshlik munosabatlari o'zbek madaniyatining muhim qismi sifatida tasvirlanadi. Asarda ota-ona hurmati, kattaga ehtirom, oilaga sadoqat, nikoh va oila mas'uliyati, ayolning oiladagi o'rni kabi oilaviy kodlar namoyon bo'ladi. Bu kabi qadriyatlar til va voqealar rivoji orqali ochib berilgan. Misollarga murojaat qilamiz.

Onalar tuqqan bolalarini sizga “tilab-tilab olg'an falonim” deb, otalar “Xudoy bergan o'g'ulcha” deb taqdim etadirlar. Ammo bizning Anvar bo'lsa onasining “tilab-tilab olg'ani” emas va otasi ham uni “o'g'ulchag'a” hisoblamag'an edi. Otasining kasbi bo'yoqchilik, hamisha yarim belidan nil suviga cho'milib yotgan bir kambag'al va bir qarich, ikki qarich bolalardan beshtasiga dada edi. Shu besh bolaning yoniga izzatsiz, hurmatsiz oltinchi “mehmon” bo'lib, bizning Anvar qo'shildi. Ya'ni Anvar tilab olingan bola emas, dadasi bilan onasining tilaklariga qarshi, faqat ularning baxtsizlik va qashshoqliklariga xizmat qilg'uchi bo'lib tug'ildi. Bola tilab olinsa, so'yinch-quvonch, novorachi-surnaychi va shunga o'xshash cho'zma-chalpak, is-charog' marosimlari nuqsonsiz ijro etiladi. Ammo Anvarning dunyoga kelishi bunday marosim, tantanalar va orzu-havaslar bilan butunlay aloqasiz edi. Masalan, onasi o'z yoniga doya chaqirib takalluflanmadi, to'ng'ich qizi Nodiraning ko'magida tug'di; bolalarini qo'ni-qo'shniga so'yinchi uchun chiqarmadi. Chunki qo'shnilarining “Qaysi holing'a tug'ding?” yoki “O'zi o'lgur it mijozmi?” deb ta'na qilishlaridan cho'chidi.

Shu holda yetti-sakkiz kunlab Anvarning dunyoga “tashrifi” sir bo'lib kechdi. Anvar ohorliq yangi yo'rgak ko'rmaganidek, og'alaridan birining eski beshigiga to'qquzinchi kun belandi emas, tiqildi. Ism qo'yish vazifasini yigirma ikkinchi kunlarda o'n ikki yoshli Nodira ado qildi [1, 416].

O'zbek oilasida farzand dunyoga kelganda nutqda qo'llanadigan **“tilab-tilab olg'an falonim”, “Xudoy bergan o'g'ulcha”, “onasining tilab-tilab olg'ani”, “tilab olingan bola”, “so'yinch-quvonch”, “novorachi-surnaychi”, “cho'zma-chalpak”, “is-charog”, “qo'ni-qo'shniga so'yinchi uchun”, “ohorliq yangi yo'rgak”** kabi iltifotli so'zlar Anvar dunyoga kelganda qo'llanmagan. Aksincha, **“izzatsiz”, “hurmatsiz”, “Qaysi holing'a tug'ding?”, “O'zi o'lgur it mijozmi?”, “belandi emas, tiqildi”** birliklarining qo'llanishi Anvar dunyoga kelgan oilaning ayanchli ijtimoiy ahvoli haqida ma'lumot berishga yo'naltirilgan. Keltirilgan parchada oilaviy kodlar orqali real hayot tasviri berilgan.

Romanda milliy urf-odatlar va marosimlarga oid ko'plab madaniy kodlar mavjud. Marosim kodlari sovchilik, nikoh, to'y, mehmon kutish, duolar, motam marosimlari kabi birliklarda berilgan. Bu marosimlar xalqning ijtimoiy hayoti va an'analari aks ettiradi. Xususan, **Ra'noning unashtirilishi** tasviriga e'tibor beraylik.

Baxtga qarshi, bu do'stlik aloqasi uzoq davom etalmadi. Bir kun oradagi do'stlik rishtasini o'lim yag'mogari kelib uzdi. Nasim o'n besh yoshlar chamasida chechak kasali bilan og'ridi va o'sha kezlarda davosiz hisoblangan bu kasaldan o'nglalmay vafot qildi. Muhammad Rajabbek va oilasi uchun bu musibat, albatta, og'ir edi. Biroq ulardan ham Anvar uchun og'ir bir hasrat bo'ldi. Hatto ko'z yoshini marhumning ota-onasidan ham ko'proq Anvar to'kdi desak, mubolag'a qilmagan bo'lurmiz. Uch kun maktab va maxdumni unutib, Muhammad Rajabbek hovlisida turib qoldi. Har oqshom Nasimning qabri ustida bir soatlab yig'lab o'lturdi. Bu yoshning samimiy chin do'stligi va o'rtog'iga sadoqati har kimni taajjubga qo'ydi. Anvarning birinchi martaba marhum do'stiga atab yozgan marsiyasi motamlik ota-onani yana bo'zlatgan edi... [1, 26].

Ushbu parchada motam madaniy kodi (motam bilan bog'liq urf-odatlar, qadriyatlar va ramziy belgilar) yaqqol ifodalangan. Mazkur matnda motam madaniy kodi o'zbek xalqining o'lim, ayriliq va marhumni xotirlash bilan bog'liq an'analari aks ettirgan. Matnda motam mazmunini yuzaga chiqaruvchi quyidagi so'z va birikmalar qo'llangan: **o'lim, vafot qildi, musibat, hasrat, marhum, qabr, ko'z yoshi, yig'lab o'lturdi, marsiya, motamlik ota-ona, bo'zlatgan** kabi. Bu birliklar matnda qayg'u, ayriliq va motam semantikasini hosil qilgan.

Motam marosimlariga oid madaniy belgilarning bir necha an'anaviy ko'rinishlari tasvirlangan. Masalan, marhumning uyida uch kun qolish – yaqin insonning dardiga sherik bo'lish, hamdardlik bildirish odatini ifodalaydi. Qabr ustida yig'lash – marhumni xotirlash va unga bo'lgan sadoqatning ramziy belgisi sifatida qaraladi. Ko'z yoshi to'kish – motamning eng tabiiy va milliy madaniyatda qabul qilingan ifodalaridan biri. Marsiya yozish – marhum xotirasiga bag'ishlangan adabiy motam janri bo'lib, o'zbek mumtoz va xalq adabiyotida muhim o'rin tutadi. Marsiyaning motamlik ota-onani bo'zlatishi uning hissiy ta'siri orqali motamning chuqurlashishini ko'rsatadi.

Abdulla Qodiriy motamning ruhiy og'irligini quyidagi ifodalar orqali kuchaytirib beradi: **og'ir musibat, og'ir hasrat, ko'z yoshini ... ko'proq Anvar to'kdi, bir soatlab yig'lab o'lturdi, samimiy chin do'stligi** kabi birliklar motamning nafaqat tashqi, balki ichki ruhiy kechinma ekanini ham ochib bergan. Bu marosim kodlari emotsional-ekspressiv vositalar bo'lib, asarning yuksak badiiyligini ta'minlashga xizmat qilgan.

Tahlil etilayotgan asar parchasida motam madaniy kodi quyidagi qadriyatlarni namoyon etadi: **do'stlikka sadoqat, hamdardlik va birdamlik, marhum xotirasini e'zozlash, qayg'uni birgalikda boshdan kechirish** kabi tuyg'ularda aks etadi.

Asarda motam madaniy kodi **o'lim, musibat, ko'z yoshi, qabr, marsiya, marhum** kabi leksik birliklar hamda qabr ziyorati, marhum uyida motam tutish, marsiya yozish kabi milliy-madaniy an'analar orqali ifodalangan. Ushbu kod Anvarning do'stiga bo'lgan sadoqatini, marhum xotirasiga chuqur hurmatini va o'zbek xalqining motam madaniyatiga xos axloqiy hamda ma'naviy qadriyatlarini badiiy jihatdan yoritishga xizmat qilgan.

Qahramonlar nutqida quyidagi murojaat shakllari uchraydi: **taqsir, domla, afandim, xon, oyim, bek** birliklari jamiyatdagi ijtimoiy mavqe, yosh va hurmat darajasini bildiruvchi madaniy kodlar hisoblanadi.

Anvar uch haftagacha **xatmi Qur'on** kechalari Muhammad Rajabbek uyiga kelib turar edi. Oxirgi **xatmi Qur'on** kechasi Muhammad Rajabbek Anvardan ahvol so'radi:

- Domlangiz salomatmi?
- Shukur.
- O'qishingiz yaxshimi?
- Birmuncha.
- Domlani uyida turasizmi?
- Taqsir.
- Siqilmaysizmi?
- Yo'q.
- Ilmi hisob o'qiganingiz bormi?
- Yo'q, taqsir.
- Domlangiz ilmi hisobni bilurmikin?
- Bilmaslar deb o'ylayman.
- Agar men bir domla tayin qilsam, hisob o'qiysizmi?
- Ustozim ruxsat bersalar, albatta o'qiymen.
- Xo'b... bo'lmasa, ertaga kechqurun domlangiz shu yerga kelib, menga uchrashsin.
- Xo'b, taqsir [1, 26].

Ushbu dialogda murojaat kodi qahramonlar o'rtasidagi ijtimoiy mavqe, yosh farqi, hurmat va muomala madaniyatini ifodalovchi lingvistik vositalar orqali namoyon bo'ladi. Dastlab murojaat birliklari haqida. Matnda quyidagi murojaat shakllari qo'llangan. **Domlangiz** – suhbatdoshning ustoziga nisbatan hurmatni ifodalovchi murojaat. **-ngiz** egalik qo'shimchasi hurmat ma'nosini kuchaytirib kelgan.

Taqsir [arabcha **تقصير** – qisqartirish, kamaytirish; kamchilik; dangasalik, yalqovlik] **esk.** amaldorlarga, boy va mullalarga hurmat bilan murojaat shakli. [Mullado'st:] «Taqsirim, bizning toji davlatimiz janobingizda». Hamza, *Maysaraning ishi*. «Gapingiz nuqul haqiqat, taqsir», – dedi Olchinbek... K. Yashin, *Hamza*. «Aftidan, tagli-tugli odam bo'lsangiz kerak, keling, sizga taqsirim deb murojaat qilay. O'lis zamonlarda yaxshi odamlar bir-birlariga taqsir deb muomala qilisharkan». N. Eshonqul, *Yalpiz hidi*. [12, 95].

Taqsir – o'zbek nutq madaniyatida yoshi ulug', obro'li yoki mansabdor shaxsga nisbatan qo'llanadigan hurmat murojaati. Anvar Muhammad Rajabbekka har bir javobida **taqsir** so'zini ishlatib, uning yuqori ijtimoiy maqomini tan oladi. **Ustozim** – ustozga nisbatan ehtirom va sadoqatni bildiruvchi murojaat birligi.

Murojaat kodining lingvistik xususiyatlarini matnda kuzatamiz. Murojaat kodi quyidagi til vositalari: hurmat affiksleri, hurmat bildiruvchi so'zlar, qisqa va odobli so'zlar orqali ifodalangan. Hurmat shakllari – **domlangiz, bersalar** kabi birliklardagi **-ngiz, -lar** qo'shimchalari hurmat ma'nosini ifodalab kelgan. **Taqsir** va **ustozim** hurmat bildiruvchi so'zlar sifatida kelgan bo'lsa, **Shukur, Yo'q, Xo'b, Albatta o'qiymen** kabi javoblar suhbat odobiga mos holda berilgan qisqa va odobli javoblardir.

Matnning pragmatik jihatlari Muhammad Rajabbek va Anvar o'rtasidagi suhbatda ko'rinadi. Muloqot davomida Muhammad Rajabbek savol beruvchi, Anvar esa javob beruvchi pozitsiyasida turadi. Bu holat ularning yosh va tajriba jihatidan teng emasligini, ijtimoiy mavqedagi farqni, ustoz-shogird va kattaga hurmat tamoyillariga asoslangan muloqotini ko'rsatadi.

Anvarning «Ustozim ruxsat bersalar, albatta o'qiymen» javobi murojaat kodi bilan birga milliy odob me'yorlarini ham ifodalaydi. Unda shaxsiy istakdan ko'ra ustoz roziligini ustun qo'yish qadriyati aks etgan.

Murojaat kodi orqali o'zbek milliy nutq madaniyatiga xos quyidagi qadriyatlar namoyon bo'ladi: kattalarga hurmat, ustozni ulug'lash, kamtarlik, muomala odobi, ijtimoiy ierarxiyaga rioya qilish va b.

Mazkur parchada murojaat kodi **taqsir, domlangiz, ustozim** kabi murojaat birliklari hamda hurmatni bildiruvchi

-ngiz va **-lar** affikslari orqali ifodalangan. Ushbu lingvistik vositalar qahramonlar o'rtasidagi hurmatga asoslangan muloqotni, ijtimoiy mavqeni va o'zbek xalqining nutq odobi hamda muomala madaniyatini yoritishga xizmat qiladi.

Asarda ko'plab ramziy kod (obraz)lar mavjud. Masalan, **mehrob** – poklik, e'tiqod va muqaddaslik; **chayon** – xiyonat, fitna va yovuzlik; **nur** – haqiqat va ezgulik; **zulmat** – jaholat va adolatsizlik kabi. Bu ramzlar roman g'oyasini chuqurroq ochishga xizmat qiladi.

5. XULOSA

Abdulla Qodiriy o'zbek xalqining kundalik turmush hayotini ham aks **ettiradi**. Buni biz quyidagi milliy-maishiy kodlarda ko'ramiz. Masalan, milliy kiyimlar, dasturxon madaniyati, mehmondo'stlik, uy-joy tuzilishi, bozorlardagi muomala va b. Bu tasvirlar xalqning moddiy va ma'naviy madaniyatini namoyon etadi.

Eng muhim va yetakchi bo'lgan til kodlari asarda yuksak mahorat bilan berilgan. Asar tilida maqol va matallar, xalqona iboralar, diniy terminlar, tarixiy so'zlar, qarindoshlik terminlari faol qo'llanadi. Ular xalqning milliy tafakkuri va tarixiy xotirasini ifodalaydi.

«**Mehrobdan chayon**» romanidagi madaniy kodlar diniy, axloqiy, oilaviy, marosimiy, ramziy kodlar va til birliklari orqali ifodalanadi. Ushbu kodlar asarning badiiy-estetik qimmatini oshirish bilan birga, XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi o'zbek jamiyatining ma'naviy hayoti, qadriyatlari va dunyoqarashini yoritadi. Shu jihatdan asar etnolingvistik va lingvokulturologik tadqiqotlar uchun ham muhim manba bo'la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994. – 150 b.
2. Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013. – 136 b.
3. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent: Turon Zamin Ziyonashriyoti, 2015. – 112 b.
4. Xudoyberganova D. Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Bookmany Print, 2024. – 112 b.
5. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 256 b.
6. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya fanidan ma'ruzalar kursi. – Toshkent: Universitet, 2014. – 104 b.
7. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2002. – 168 b.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildli. 1-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 964 b.
9. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildli. 2-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 1036 b.
10. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildli. 3-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 844 b.
11. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildli. 4-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 824 b.
12. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildli. 5-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 720 b.
13. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildli. 6-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 864 b.